

XOTIN QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH

Abdukarimova Roxila Abdurayimovna

Talaba, Far‘gona davlat universiteti, Farg‘ona shahri

Abdukarimovarohila3@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan qonunlar va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash.*

Taraqqiyotga yuz tutayotgan har qanday mamlakat o‘z oldiga yetakchilar qatoriga qo‘shilishni maqsad qilar ekan, xalqaro demokratik hamjamiyat tomonidan o‘rnatilgan muayyan standartlarga rioya qilishi, o‘z qonunchiligi va taraqqiyot dasturlarini ham ularga moslashi zarur bo‘ladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yilda har yili 25-noyabr kuni “Gender zo‘ravonliklariga qarshi faol 16 kun” deb nomlangan kampaniyaga start berilib, bu kampaniya Xalqaro inson huquqlari kuni nishonlanadigan 10-dekabrda yakunlanadi.

Jumladan, Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Kovensiyaning (CEDAW) 2-moddasi barcha mamlakatlardan: “zudlik bilan barcha tegishli usullar orqali xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish siyosatini yurgizish”ni talab qiladi. Bu bilan “xotin-qizlarni kamsitadigan birorbir xatti-harakatni amalga oshirishdan tiyilish, davlat organlari va muassasalarining ushbu majburiyatga muvofiq faoliyat ko‘rsatishlariga kafolat berish”; “xotin-qizlarni kamsituvchi mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan, qonunchilik choralari ko‘rish” majburiyatini yuklaydi. Xotin-qizlarga qarshi qaratilgan zo‘ravonliklarning ko‘pchiligi oilada va oilaviy zo‘ravonlik shaklida namoyon bo‘ladi. Oilaviy zo‘ravonlik – butun dunyoda keng tarqalgan va har qanday millat vakillariga, ularning ijtimoiy qatlami va ma‘lumoti darajasidan qat’i nazar, xos bo‘lgan hodisadir. Zamonaviy tadqiqotchilar zo‘ravonlik faqat ijtimoiy noqobil oilalardagina sodir bo‘ladi degan tasavvurlarni jamoatchilik ongida shakllangan afsona, deb hisoblaydilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, agar ayolga qarshi zo‘ravonlik mavzusiga chuqurroq kirib borilsa, ko‘proq oila zo‘ravonligi sodir bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Ayol o‘z turmush o‘rtog‘i yoxud jamiyatning boshqa a‘zolari tajavvuziga uchrashi, erkakning hayotidagi ayrim salbiy o‘zgarishlar natijasidagi stresslari ayolni do‘pposlash orqali namoyon bo‘layotgani, arziyas maishiy muammo yoki o‘zaro munosabatlarning nizosi jarayonida ayolning joniga qasd qilishgacha yetib borilayotgani kabi mudhish jinoyatlarga duch kelinmoqda.

Zo‘ravonlik muhokama uchun juda murakkab predmet bo‘lib, uning qurbonlari ko‘pincha sukut saqlashga majbur bo‘ladilar. Ular bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo‘ravonlik qurboni sharmandlik va turli gap-so‘zlardan qo‘rqib, jim yurishga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo‘ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo‘rqsa, boshqalari farzandlari va o‘z hayoti uchun xavfsiraydi. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Ayniqsa, hatto eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o‘zini olib qochgan. Ayollar izolyatsiya, mehnatga layoqatsizlik, ish haqini yo‘qotish, odatdagi ishlarda qatnashmaslik va o‘zlari hamda farzandlariga g‘amxo‘rlik qilish qobiliyatining cheklanishidan aziyat chekishi mumkin. Oxiroqibat bu doimiy qo‘rquv, depressiya, o‘z joniga qasd qilish kabilar bilan tugamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan inson qadri ustuvor bo‘lgan yangi O‘zbekistonda ayol qadri – ona qadri alohida o‘ringa ega.

Joriy yilda mamlakatimizda oiladagi zo‘ravonliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 8 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingani ham buning amaliy isbotidir.

Zero, davlatimiz rahbari o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitobida ta’kidlaganidek, “Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtlidir”. Shunday ekan, bugun yurtimizda har bir yo‘nalish bo‘yicha islohotlar olib borilayotgan bir paytda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llabquvvatlash ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

Ayollar huquqlari - bu ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy mavqeyini mustahkamlaydigan huquqlardir. Ular ayollarni jinsga qarab kamsitishlardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan.

Ayol huquqlari inson huquqlari sohasidagi ko‘plab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va harakatlar dasturlarida kafolatlangan asosiy inson huquqlaridan biridir. Xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (CEDAW) va uning Fakultativ protokoli hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar huquqlari BMTning boshqa shartnomalarining, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya, muhim elementlardir. Ayollarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil qonunchilik va boshqa chora-tadbirlar tufayli ular o‘z huquq va erkinliklarini, tadbirkorlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan va ijtimoiy-siyosiy sohalardagi bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

2019 yil 2 sentyabrda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi, u ayollarni uyda, ish joyida, ta’lim muassasalarida

zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunda bir qator tushunchalar, «jinsiy zo‘ravonlik», «jismoniy zo‘ravonlik», «iqtisodiy zo‘ravonlik», «ruhiy zo‘ravonlik» «zo‘ravonlik», «tazyiq» kabi tushunchalarga keng ta'rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi «Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5116 sonli qarori bilan 1 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlari hamda zo‘ravonlik qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan 1146 qisqa raqamli «Call-center» tashkil etildi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni tuzatish dasturlari to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan huquqiy va ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha 360 nafar inspektorlar shtat birligi joriy etildi.

Ayollarning mehnat va bandlik sohasidagi huquqlarini ta'minlash sohasida:

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlarga muvofiq xotin-qizlarni ayrim sohalar yoki kasblarga jalb qilish taqiqlari bekor qilindi, shuningdek, ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan sohalar yoki kasblarning tavsiya etiladigan yangi ro‘yhati tasdiqlandi.

Ayollar 60 yoshga to‘lgunga qadar pensiya yoshiga yetgan yoki qonun bo‘yicha keksa yoshdagi pensiya olish huquqini yaratganligi sababli noma'lum muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini bekor qilish taqiqlanadi.

Ayollar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hisobidan biznes-inkubator shaklida "Ayollar tadbirkorlik markazlari" tashkil etildi, ularning asosiy vazifalari tug‘ruq ta'tilida bo‘lgan va og‘ir iqtisodiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga qayta tayyorlashdan iborat. Maxsus o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan ayollar uchun Jamg‘arma va xalqaro tashkilotlarning mablag‘lari hisobiga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun kamida 3 yil, 6 oylik imtiyozli davr va yillik 8 foiz stavkasi bilan imtiyozli kreditlar beriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. «Yangi O‘zbekiston strategiyasi». – Toshkent, 2021. «O‘zbekiston» NMIU.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish haqida»gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma’qullangan.
3. lex.uz